



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT  
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

**TOSHKENT SHAHRIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**



***Dastlabki ma'lumot  
2025 - yil yanvar***


***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi***

***Тел. 71-203-88-20(21)***

*(\* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida  
yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar oyi, foizda)



2025-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 13 153 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 179 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 12 974 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar oyida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 7 450,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 109,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 867,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 99,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 583,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 123,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 151,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,6 %) tashkil etdi.


### **Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar oyi)**

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2024-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>7 450,7</b>	<b>109,8</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	637,5	112,0
Bektemir	243,5	124,4
Yunusobod	975,1	121,2
Mirzo Ulug'bek	554,1	116,8
Mirobod	554,2	110,2
Shayxontohur	903,1	105,0
Olmazor	489,3	110,7
Sirg'ali	525,0	107,7
Yakkasaroy	566,9	102,7
Yashnobod	612,1	105,3
Yangihayot	96,5	124,7
Chilonzor	1 028,8	103,6

2025-yilning yanvar oyida 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (124,7 %), Bektemir (124,4 %) va Yunusobod (121,2 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


(\* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar, mlrd so'mda)




So'nggi 5 yillikda (2021–2025-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil qildi.

## 2025- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2025-yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **109,8** % ni tashkil qildi.

(Ulushi, foizda)




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 13,8 % bilan 1 028,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,3 % bilan 96,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2024-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2025-yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 583,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 23,7 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,5 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 0,1 % ga kamaydi va 2 867,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 38,5 % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bektemir (87,1%), Uchtepa (81,7%) va Chilonzor (74,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 38,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Mirobod (58,0 %), Yashnobod (51,7%), Sirg'ali (45,5%), Mirzo Ulug'bek (45,2 %) tumanlarida kuzatildi.

38,5 %



61,5 %




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



(Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

2025-yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 421,6 ming. so'mni 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 107,0 % tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (4 150,3 ming. so'm), Bektemir (3 864,4 ming. so'm) va Chilonzor (3 728,7 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2025- yil yanvar), foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


### Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar)

	Jami, mlrd. so'm	2024 -yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>151,7</b>	<b>125,6</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	6,6	49,6
Bektemir	34,3	165,4
Yunusobod	29,6	2,4 m.
Mirzo Ulug'bek	21,1	84,0
Mirobod	1,6	34,4
Shayxontohur	15,2	87,2
Olmazor	4,4	158,3
Sirg'ali	6,3	142,8
Yakkasaroy	4,2	176,4
Yashnobod	17,0	2,1 m.
Yangihayot	-	-
Chilonzor	11,4	123,1


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
2025- yil yanvar)















Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2025- yil yanvar)



Toshkent shahari bo'yicha 2025-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 151,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 125,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 142,6 mlrd.so'mni (126,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 9,1 mlrd so'mni (116,1 %) tashkil etdi .












2025-yilning yanvar oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 142,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (77,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>77,2 mlrd. so'm</b></p> <p> 50,8 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>16,6 mlrd. so'm</b></p> <p> 11,0 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>6,6 mlrd. so'm</b></p> <p> 4,4 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>4,7 mlrd. so'm</b></p> <p> 3,1 %</p>	<p><b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>3,1 mlrd. so'm</b></p> <p> 2,0 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>2,7 mlrd. so'm</b></p> <p> 1,8 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>12,7 mlrd. so'm</b></p> <p> 8,3 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>13,2 mlrd. so'm</b></p> <p> 8,7 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak</b></p> <p><b>- mlrd. so'm</b></p> <p> - %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>3,4 mlrd. so'm</b></p> <p> 2,3 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>2,4 mlrd. so'm</b></p> <p> 1,6 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>- mlrd. so'm</b></p> <p> - %</p>

2025- yilning yanvar oyida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 9 126,8 mln. so'mni (116,1 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 7 487,8 mln.so'm, qo'y va echkilar – 758,5 mln. so'mni, otlar – 805,4 mln. so'mni, parrandalar – 75,1 mln. so'mni tashkil qildi.

### Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>3 817,5 mln. so'm</b></p>  <p>2,5 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>1 687,5 mln. so'm</b></p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>1 982,8 mln. so'm</b></p>  <p>1,3 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>682,0 mln. so'm</b></p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>805,4 mln. so'm</b></p>  <p>0,6 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>106,5 mln. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>26,0 mln. so'm</b></p>  <p>0,02 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>4,2 mln. so'm</b></p>  <p>0,003%</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>30,6'm</b></p>  <p>0,02 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>14,3 mln. so'm</b></p>  <p>0,01 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

**2025-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 849 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 47 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 802 tani tashkil qildi.**

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 754,2</b>	<b>112,8</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	14,3	120,5
Bektemir	19,8	153,9
Yunusobod	86,1	112,1
Mirzo Ulug'bek	65,9	118,7
Mirobod	124,1	110,8
Shayxontohur	146,8	107,1
Olmazor	37,5	114,1
Sirg'ali	61,7	122,8
Yakkasaroy	64,7	106,7
Yashnobod	38,4	104,7
Yangihayot	10,5	145,3
Chilonzor	69,4	110,3

2025-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 754,2 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 52,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	<b>Hajmi, mlrd. so‘m</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 639,0</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	<b>79,2</b>	<b>3,0</b>
Bektemir	<b>116,9</b>	<b>4,4</b>
Yunusobod	<b>393,8</b>	<b>14,9</b>
Mirzo Ulug‘bek	<b>132,2</b>	<b>5,0</b>
Mirobod	<b>252,1</b>	<b>9,6</b>
Shayxontohur	<b>189,0</b>	<b>7,2</b>
Olmazor	<b>42,7</b>	<b>1,6</b>
Sirg‘ali	<b>891,3</b>	<b>33,8</b>
Yakkasaroy	<b>184,8</b>	<b>7,0</b>
Yashnobod	<b>125,6</b>	<b>4,8</b>
Yangihayot	<b>49,7</b>	<b>1,9</b>
Chilonzor	<b>181,6</b>	<b>6,9</b>


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg‘ali (891,3 mlrd. so‘m), Yunusobod (393,8 mlrd. so‘m) va Mirobod (252,1 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)



2025-yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari) 2 639,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 014,4 mlrd. so‘m (26% ga kamayish), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 624,5 mlrd. so‘mni (4,4 % ga kamayish) tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshkent shahari bo‘yicha 2025-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 16 998,9 mlrd.so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

32,0 %

5445,9 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

68,0%

11553,0 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 11 553,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,0 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 68,0 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so‘m	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>16998,9</b>	<b>108,3</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	831,1	107,8
Bektemir	264,0	101,7
Yunusobod	1419,2	92,6
Mirzo Ulug‘bek	963,1	97,0
Mirobod	2089,7	105,3
Shayxontohur	936,5	120,6
Olmazor	2177,7	121,9
Sirg‘ali	863,9	110,7
Yakkasaroy	1724,8	106,9
Yashnobod	1598,7	108,6
Yangihayot	374,5	110,9
Chilonzor	1588,3	112,3

2025-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 16 932 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 257 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 16 675 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Olmazor (121,9 %), Shayxontohur (120,6 %) va Chilonzor (112,3 %) tumanlarida kuzatildi.